



## MOBIL ILOVALAR ISHLAB CHIQUISHDA FLUTTER FREYMWORIKIDAN FOYDALANISH

*A. X. Yuldoshov*

*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti*

*Samarqand filiali katta o'qituvchisi*

[\*azizbektayloq@gmail.com\*](mailto:azizbektayloq@gmail.com)

*S. Sh. Sattorov*

*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti*

*Samarqand filiali talabasi*

[\*sattorovsardor011@gmail.com\*](mailto:sattorovsardor011@gmail.com)

***Annotatsiya:** Bu maqolada bugungi kunda insonlar hayoti uchun zarur va muhim bo'lgan mobil ilovalar va ularni ishlab chiqish texnologiyalari va Flutter freymworkini ishlatish haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** Mobil ilova, texnologiya, freymwork, mobil qurilma, mantiqiy interaktiv ta'lim, mobil o'yin.*

Mobil ilovalarni ishlab chiqishda eng mashhur va qulay bo'lgan texnologiyalardan biri Flutter freymworkidir. Flutter — Google tomonidan ishlab chiqilgan ochiq manba (open-source) freymworkdir. Bu, asosan, mobil ilovalar (Android va iOS uchun) yaratish uchun mo'ljallangan. Flutter yordamida, bir vaqtning o'zida ikki platformaga (Android va iOS) ilova yaratish mumkin[1-3].

Flutterning asosiy xususiyatlari:


- **Dart dasturlash tili:** Flutter Dart dasturlash tilida yozilgan. Dart sintaksisi oson va ko'plab modern dasturlash tillariga o'xshaydi.



- **Widget-based tizim:** Flutterda ilovalar to‘liq widgetlardan tashkil topgan, bu esa interfeyslarni yaratishda juda qulaylik yaratadi. Har bir element, masalan, tugma, matn yoki rasm widget sifatida ko‘rsatiladi.

- **Tezkor ish faoliyati:** Flutter ilovalari yuqori darajadagi ishlash tezligi va samaradorlikni ta‘minlaydi, chunki ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri natijani yaratadi, natijada nisbatan tez ishlaydi.

Flutter freymworkinging rasmiy web sahifasi [www.flutter.dev](http://www.flutter.dev) hisoblanadi.



1-rasm. *flutter.dev* saytining ko‘rinishi

Mobil ilovalar yaratish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

- **Reja tuzish:** Ilovaning maqsadini aniqlash, foydalanuvchi ehtiyojlari va funksional talablarni belgilash.

- **Dizayn va UI/UX:** Interfeys dizaynini yaratish, ilova foydalanuvchilari uchun qulay va intuitiv bo‘lishini ta‘minlash. Flutterning to‘liq kutubxonalari, shuningdek, ilg‘or widgetlar mavjud bo‘lib, dizaynni tezda amalga oshirish imkonini beradi.

- **Kodlash:** Dart dasturlash tilidan foydalanib, ilovaning backend va frontend qismlarini ishlab chiqish. Flutterda bir xil kodni ikki platformada ishlatish mumkin.



- **Test va optimizatsiya:** Ilovadagi xatoliklarni aniqlash va ularni tuzatish. Flutterda hot-reload funksiyasi yordamida tezkor test qilish va kodni o‘zgartirish mumkin.

- **Yuklab olish va tarqatish:** Ilovani Google Play Store va Apple App Store’ga joylash[4-6].

Flutter fremworkini o‘rnatish uchun kompyuteringiz maxsus talablarga javob berishi kerak. Windows operatsion tizimi uchun bu parametrlar eng kamida quyidagicha bo‘lishi shart:

#### Hardware requirements


Your Windows Flutter development environment must meet the following minimal hardware requirements.

Requirement	Minimum	Recommended
x86_64 CPU Cores	4	8
Memory in GB	8	16
Display resolution in pixels	WXGA (1366 x 768)	FHD (1920 x 1080)
Free disk space in GB	4.0	52.0

#### 2-rasm. Flutter freymworkini o‘rnatish uchun kompyuter parametrlari


Shuningdek [Windows PowerShell](#) 5 yoki undan keying versiyalar, git dasturi, Android Studio yoki Visual Studio dasturlarini o‘rnatish kerak bo‘ladi. Bu dasturlar o‘ratilganidan so‘ng flutter SDK faylini arxivdan chiqarib C diskga joylashtirish kerak bo‘ladi. Iloji boricha “src” papkasini yaratib, shu faylni ichiga joylashtirish tavsiya etiladi[7,9].

Andoid Studio dasturida qo‘shimcha flutter pluginini o‘rnatish kerak bo‘ladi.




3-rasm. Flutter pluginini o'rnatish.

Yangi Flutter loyiha yaratish uchun **“New Flutter Project”** bandi chiqadi.



3-rasm. Flutterda yangi loyiha yaratish.

Flutterda yaratilgan yangi loyihaning ko'rinishi va natijasi quyidagicha:



4-rasm. Flutterda yangi loyihani yaratish jarayoni.

### Flutterning afzalliklari

- **Bir kod bazasi:** Flutter yordamida bir xil kod bazasi orqali Android va iOS platformalari uchun ilovalar yaratish mumkin. Bu vaqt va resurslarni tejashga yordam beradi.
- **Hot-reload:** Kod o'zgartirilganda, o'zgartirishlarni ilovada darhol ko'rish mumkin, bu ishlab chiqish jarayonini tezlashtiradi.
- **Keng kutubxonalar:** Flutterda ko'plab tayyor kutubxonalar mavjud bo'lib, ular orqali ilovalarni tez yaratish va kengaytirish mumkin.
- **Kross-platform:** Faqat mobil ilovalar emas, balki veb-ilovalar va desktop ilovalarini ham Flutterda yaratish mumkin (yangi versiyalar bilan).

**Flutter va boshqa texnologiyalar.** Boshqa mashhur mobil ilova ishlab chiqish texnologiyalari:



- **React Native:** JavaScript asosida ishlab chiqilgan, kross-platforma ilovalarini yaratish uchun foydalaniladi. React Native ham ko‘p imkoniyatlar beradi, lekin ba’zan Flutterdan pastroq ishlash tezligi va kamroq moslashuvchanlikka ega.

- **Xamarin:** C# dasturlash tilida ishlab chiqiladi va Microsoft tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Xamarin yordamida ham kross-platforma ilovalarini yaratish mumkin[8,10].

### Flutterni ishlatishning qaysi holatlarda afzalligi bor?

- **Yangi boshlovchilar uchun:** Agar dasturlashga yangi kirishgan bo‘lsangiz, Flutter yordamida ilovalarni yaratish nisbatan osonroq va tezroq bo‘lishi mumkin, chunki barcha kod bir xil bo‘lib, o‘rganish jarayoni sodda.

- **Kichik va o‘rta biznes ilovalari:** Flutterning keng kutubxonalari va ishlab chiqishning tezligi, kichik kompaniyalar va startaplar uchun juda mos keladi.

- **Kross-platform ilovalar:** Agar siz ikkita platformada (Android va iOS) bir xil ilovani yaratmoqchi bo‘lsangiz, Flutter eng yaxshi tanlovlardan biridir.

Shunday qilib, Flutter — bu hozirgi kunda mobil ilovalar yaratish uchun eng ommabop va samarali texnologiyalardan biri. Agar siz ham mobil ilova ishlab chiqishni o‘rganishni xohlasangiz, Flutterni sinab ko‘rishni tavsiya qilaman.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Адама Порта. Шарифа Хашеми. "Programming Mobile Applications for Android Handheld Systems: Part 1".
2. Ted Schadler, Josh Bernoff, Julie Ask. The Mobile Mind Shift: Engineer Your Business to Win in the Mobile Moment. 2014.
3. Йулдошов А.Х., Ходжаев Т.Т., Эрмаматов С.С. Мобильное приложения в повышении математической грамотности учащихся начальной школы. Сборник докладов научно-практической конференции “Современные информационно-педагогическиетехнологии в цифровизации образования:



проблемы и решения”. 11-12 мая 2023 года. 45-48 ст.

4. A. Yuldoshov, Sh. Khodzhayev, T. Khodzhayev. [Mathematical Model for Assessing the Reliability of the Functioning of a Distribution Gas Supply Network as a Queuing System](#). INTERNATIONAL JOURNAL OF THEORETICAL AND APPLIED ISSUES OF DIGITAL TECHNOLOGIES. 2023/3/19. 45-53 pages.
5. Aziz Khujamurodovich Yuldoshov. [INFORMATION AND ANALYTICAL ASSESSMENT OF THE FUNCTIONING OF THE GAS SUPPLY NETWORK IN THE EVENT OF EMERGENCY SITUATIONS](#). Современные инструментальные системы, информационные технологии и инновации. 2022 г. 19-23 ст.
6. Khodzhaev Shukhrat Tolibovich, Yuldoshov Aziz Khujamurodovich, Khodzhaev Tolib Tohirovich. [Program for Calculation of the Optimal Distribution of the Planned Amount of Gas on the Gas Supply Network](#), 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT). 2021/11/3, 1-4 pages.
7. Sh. Khodzhaev, A. Abdukarimov, A. Yuldoshev, T. Khodzhaev. Technology for Digitalization of Research and Evaluation of the Functioning of Territorial Gas Supply Networks. *AIP Conference Proceedings*. 3147, 030024 (2024).
8. Yuldoshov A.X., Shokirov F. Mobil ilovalar yaratishda boshqaruv elementlaridan foydalanish. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS VOLUME – 52, ISSUE – 2, 159-165 betlar. May – 2024. (google.scholar).
9. Yuldoshov A.X., Shokirov F. Mobil ilovalar ishlab chiqish bosqichlari va tamoyillari. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS VOLUME – 52, ISSUE – 2, 166-171 betlar. May – 2024. (google.scholar).
10. Yuldoshov A.X., Jiyanov O.P., Majidov H. Mobil ilovalar ishlab chiqishda funksiyalardan foydalanish. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS VOLUME – 52, ISSUE – 2, 172-176 betlar. May – 2024. (google.scholar).